XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHI QARORI

2023 - yil 22 - iyul VI-50-70-3-48-K/23 Zomin tumani hokimligi

Tumanda sportning futbol va mini futbol turlari bo‘yicha musobaqa g‘oliblarini taqdirlash uchun mablag‘ ajratish to‘g‘risida

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, kitobxonlikni targ‘ib qilish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-sonli qarori, 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash hamda O`zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limining 2023-yil 27-maydagi 01-21/124-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-sonli qarori, 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-sonli Farmoni hamda Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i B.Shukurovning 2023-yil 27-maydagi 01-21/124-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Mamatqulov)ga,

sportning futbol va mini futbol turlari bo‘yicha “DXX raisi kubogi” tuman bosqichi musobaqa g‘oliblarini taqdirlash uchun 200 000 000 (ikki yuz million) so‘m, 2023-yil 2-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan ajratish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman g‘aznachilik bo‘limi (O.G‘afforov), tuman hokimligi bosh hisobchisi (A.Ro‘zibekov) larga,

2023-yil 2-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan ajratilgan pul mablag‘idan samarali foydalanish va belgilangan tartibda maqsadli yo‘naltirish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimi o‘rinbosari (S.Anvarov), yoshlar ishlari Agentligi tuman bo‘limi (B.Shukurov), tuman sport maktabi (F.Madatov) larga,

sportning futbol va mini futbol turlari bo‘yicha “DXX raisi kubogi” tuman bosqichi tashkil etish, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan yoshlarni munosib taqdirlash va boshqa zaruriy qo‘shimcha yordamlarni ko‘rsatish choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy isloxotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi S.Ergashev hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Omonqulov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Abdug'aniyev**